Использованная литература:

1. Зеленая экономика: Учеб. А. В. Вахабов, Ш. Х. Хаджибакиев и другие. – Ташкент.: «Университет», 2020. – 262 с. 2.
2. Исламский банкинг: анализ возможностей и перспектив // Научные Статьи.Ру — портал для студентов и аспирантов. — Дата последнего обновления статьи: 14.09.2023. — URL https://nauchniestati.ru/spravka/islamskij-banking-oczenka-perspektiv-deyatelnosti/ (дата обращения: 21.05.2024).
3. Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № ПФ158 «О стратегии Узбекистана – 2030».
4. Постановление Президента Республики Узбекистан от 4 октября 2019 года № PQ-4477 «Об утверждении стратегии перехода к «зеленой» экономике Республики Узбекистан на период 2019-2030 годов»
5. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по реализации проекта «Использование инновационных углеродных ресурсов для реформирования энергетики» с участием Всемирного банка» от 8 августа 2023 года № PQ-271
6. Urinov, Bakhrom Jamoliddinovich (2020) "EUROPEAN STANDARDS FOR THE QUALITY OF EDUCATION.," Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 2 : Iss. 7 , Article 77.
   6. Available at: https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss7/77
7. Сайт Министерства экономики и финансов. imv.uz
8. Экологические проблемы Узбекистана. htts://evolelium.com. 2021 7. FAYZIEVA S. S. The importance of economic reforms in the modernization and development of the livestock sector //Journal of Contemporary Issues in Business and Government| Vol. – 2021. – T. 27. – №. 2. – C. 4052

MINTAQA VA TARMOQLAR BARQAROR RIVOJLANISHI MUAMMOLARI: IJTIMOIY-IQTISODIY VA EKOLOGIK JIHATLAR

OLIY TA’LIMDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA TYUTORLARNI TUTGAN O‘RNI

Turdimuhammadova Zarifaoy Shuxrat qizi
Namangan davlat universitetitalabasi

Annotatsiya: *ushbu maqolada tyutorlik tushunchasi,tyutorlik faoliyatining paydo bo‘lish tarixi, tyutorning vazifalari, uni maqsadi va talabalarni ta’lim olish jarayonida tutgan o‘rni haqida yoritib berilgan*

Kalit so‘zlar*: Oliy ta’lim, talaba, tyutor, tyutorlik faoliyati, o‘quv jarayoni, ta’lim-tarbiya.*

Bugungi kunda davlatimizda amalga oshirilayotgan oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro ta’lim standartlariga moslashtirish va xalqaro reytingga kirishga qaratilgan islohotlar bevosita ta’lim sifati bilan bog‘liq. Ta’limini modernizatsiya qilish yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘quv jarayonini individuallashtirish, har bir ta’lim sub’ekti nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega, balki shaxsga tegishli kompetensiyalarni egallashi uchun sharoit yaratish,

individual ta’lim tizimini yaratish va amalga oshirish imkoniyati hisobga olinadi. Ta’limni rivojlantirish tarixi shuni ko‘rsatadiki, tyutorlik nazariyasi va amaliyoti individuallashtirish tamoyilini amalga oshirishning asosiy manbasi hisoblanadi. uchun jiddiy manba bo‘lishi mumkin. “Tyutor - bu oliy ta’lim muassasasida faoliyat yuritadigan, tegishli malaka talablarigajavob beradigan, yuksak axloqiy fazllatlarga ega bo‘lgan xodim bo‘lib, o.ziga biriktirilgan guruh talabalarining ta’lim olishlarida, shuningdek, darsdan bo,sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlarida ko‘maklashadi, ularni insonparvarlik, adolat, mehnasevarlik, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, beshta muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan to‘garak va klublarga jalb etish, ta’lim olish jarayonida ytzaga keladigan barcha masala va muammoni o‘rnatilgan tartibda bartaraf etishga qaratilgan faoliyatni olib boradi” [8]. Tyutorlarning asosiy maqsadi - ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda universitet va talabalar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, talabalarning universitet hayoti va ta’lim jarayoniga moslashishiga ko‘maklashish, ularga uslubiy, ijtimoiy va psixologik yordam ko‘rsatish va talabalarda tanlagan kasbiga muhabbatni oshirishdir. Shu bilan birga ular yigit-qizlarning dars mashg‘ulotlarini muntazam tahlil qilib boradi va sifatini oshiradi, ularning darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishini ta’minlaydi hamda ijtimoiy ahvolidan doimiy xabardor bo‘lib turadi.

Rus tadqiqotchisi N.V.Ribalkinaning fikriga ko‘ra XVI asr oxiriga kelib tyutor universitet ta’lim tizimida qo‘l ostidagi talabalarning tarbiyasiga ma’sul bo‘lgan muhim shaxsga aylanadi. XVII asrda tyutor faoliyati ko‘lami yanada kengayib, endilikda unga ta’lim berish vazifalari ham yuklanadi. U talabaga qaysi amaliy mashg‘ulot va ma’ruzalarga kirishni aniqlab beradi,talabalarni kelib ketishlarini, o‘qishlarini, imtihonlarga tayyor bo‘lishlarini nazorat qilib boradi. XVII asrdan boshlab tyutorlik tizimi rasman ingliz oliy ta’limi tizimining ajralmas qismi sifatida tan olina boshlagan.

T.I.Konyanina tomonidan “tyutor - bu mustaqil bilim olish jarayoniga ,yakka tartibdagi ta’limga oid izlanishga ko‘maklashuvchi, qo‘llab-quvvatlovchi, individual ta’lim loyihalari va dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlovchi”.

C. A. Shennikov tomonidan “tyutor” o‘qituvchi konsultant sifatida ta’lim va mustaqil ta’lim olishni tashkil etuvchi mutaxasis.

Tyutorlar talabalarning o‘quv intizomini mustahkamlash, ularda ijodiy fikrlash, halollik, to‘g‘ri so‘zlik kabi xislatlarni shakllantirish borasida tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yadi. Iqtidorli va iste’dodli talabalarni aniqlab ularning turli tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga hamda talabalarning loyiha va startaplarini amalga oshirishga ko‘maklashadi.

Talabalarning darslarini o‘zlashtirish darajasini nazorat qilib boradi, ularning innovatsion ta’lim texnologiyalari va o‘quv uslubiy materiallar axborot resurslari bilan ta’minlash va ushbu manbalardan keng va unumli foydalanishi uchun zamin yaratadi. Tyutorlar talabalarni o‘ylantiradigan qator masalalar, xususan talabalarni turar-joy bilan ta’minlash qoldirilgan darslarni o‘zlashtirishga yordam berib boradi. Har bir tyutor o‘ziga biriktirilgan akademik gruhlarning darslarini talaba davomatini va darz sifatining monitoringini olib borish maqsadida kuzatish, talabalarga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish, talabalar turar-joyiga joylashishi uchun e’lon berish va bu boradagi

[8] Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2021- yil 30-sentyabrdagi 412-son buyrug’iga 1-ilova “Davlat oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to’g’risida”gi nizom.

komissiya yig‘ilishida talabaning ishtirokini ta’minlash talabaga tavsifnoma va akademik ta’til berish masalasini hal qilishda ishtirok etish, ularni rag‘batlantirishi yoki jazolanishi turli stipendiyalarga tavsiya qilishda xulosa va fikrnoma berish huquqiga ega.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tyutorlar talabalarni ta’lim olish jarayonida muhim ahamiyatga bugungi zamonaviy ta’lim tizimi tyutorlari o‘z kasbini yetuk mutaxasisi, bilimli va dunyoqarashi keng pedagoglardir. Ular talabalarga har tomonlama yaqindan yordam berib, to‘g‘ri yo‘naltirib jamiyat uchun yanada bilimli, salohiyatli kadr yetishishiga xizmat qilishmoqda. Bugungi kunda tyutorlar talabalarni turar-joy, ma’naviy-ma’rifiy masalalar hamda besh tashabbus doirasida faoliyat olib boribgina qolmay, faoliyat yo‘nalishida tegishli bilimlarga ega bo‘lishini taqazo etmoqda. Talabalarga tanlov fanlarini tanlashda ham ko‘maklasha oladigan va kelajakda yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishlari uchun yo‘nalish bera oladigan mutaxassislar bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2021- yil 30-sentyabrdagi 412-son buyrug’iga 1-ilova “Davlat oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to’g’risida”gi nizom.
2. Omonov A. Tyutorlik - talabalar bilan ishlashda innovasion uslub. “Yangi O‘zbekiston” gazetasining 2022-yil 26-martdagi 61 (583) soni
3. Уринов Бахром Жамолиддинович. (2022). ВЛИЯНИЕ ИНТЕГРАЦИИ НА КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ. https://doi.org/10.5281/zenodo.6553514
4. O‘rinova N. Tyutorlik faoliyatining shakllanishi, uning tarixiy va zamonaviy xususiyatlari. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022. – 387-**b.**
5. https://tsue.uz/news

KORXONADA MAHSULOT SIFATINI YAXSHILASH VA SIFATGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

To‘xtayev Zayniddin Egamnazar o‘g‘li
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
Korporativ boshqaruv kafedrasi
2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: *To‘qimachilik korxonalarida mahsulotni tekshirish va tayyorlash.Mahsulotning hayot sikli, Texnik vazifa, Mahsulot sifatini oshirish, mahsulot sifatiga tasir etuvchi omillar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar:*Sifat,standartlashtirish,realizatsiya,Kompleks standartlashtirish, Texnik vazifa (TV), Mahsulotni tayyorlash, marketing sarf-xarajatlari.*

Аннотация: *Выделены контроль и подготовка продукции на текстильных предприятиях, жизненный цикл продукции, техническое задание, повышение качества продукции, факторы, влияющие на качество продукции.*

Ключевые слова: *Качество, стандартизация, внедрение, Комплексная стандартизация, Техническое задание (ТЗ), Подготовка продукции, затраты на маркетинг.*